
Buvayda: “Uchinchi Ustozlar milliy forumi” bo‘lib o‘tmoqda

“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” shiori ostida Buvayda tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi tomonidan Uchinchi “Ustozlar milliy forumi” o‘tkazildi.

Buvayda tuman hokimi Behzodjon Ibragimov, Tuman prokurori Sulaymonov Ziyovuddin, tuman IIB boshlig‘i Ahmedov Sherzodjon, tuman DSI rahbari Roziqov Muhammadjon hamda biriktirilgan mas'ullari va ustozlar ishtirok etishdi. Unda tizimda amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar va istiqboldagi rejalar xususida so‘z yuritildi.

Tadbirda barcha tumandagi maktabgacha va maktab ta‘limi tashkilotlaridan 900 nafarga yaqin pedagoglar, tarbiyachilar va faxriy ustozlar ishtirok etishdi. Mahorat darslari umumta‘lim fanlari, maktabgacha ta‘lim, ma‘naviyat kabi 22 ta yo‘nalishni qamrab oldi.

2024-08-26 07:59:57